

O‘SMIRLARNING KASBIY SHAKLLANISHINI PSIXOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI

Mengdanova Nigora

Termiz davlat universiteti

Psixologiya mutaxassisligi magistr talabasi

Annotatsiya. Maqolada o‘smirlarda kasbiy shakllanishi psixologik muammo sifatida talqin etilgan bo‘lib, unda o‘smirlarda kasbiy shakllanishi omillari, talabalarning kasbiy shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, talaba, kasb, kasbiy qiziqishlar, kasbiy shakllanish

Аннотация. В статье профессиональное становление студентов трактуется как психологическая проблема, в которой описаны факторы профессионального становления студентов, факторы, препятствующие профессиональному становлению студентов, и пути их преодоления.

Ключевые слова: личность, студент, профессия, профессиональные интересы, профессиональное становление

Annotation. In the article, the professional development of students is interpreted as a psychological problem, which describes the factors of professional development of students, factors that impede the professional development of students, and ways to overcome them

Key words: personality, student, profession, professional interests, professional development

Kadrlar salohiyati mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy shakllanishi va ularning kamolotini ta‘minlash jamiyat oldidagi eng asosiy muammolardan biri sanaladi. Darxaqiqat, talabalarning kasbga munosabati, mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalasi juda muhim ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, bevosita uning ilmiy, ma‘naviy, moddiy salohiyatini belgilaydi.

Sharq mutafakkirlari ta‘limotida o‘g‘il va qizlarga ta‘lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rgatish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Milliy an‘analarimizga binoan

hunarmand va kasb, me'mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to'quvchi va nonvoy ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Dono halqimiz "Ustozidan o'zmagan shogird – shogird emas", "Hunarli kishi aslo xor bo'lmas", "Ustoz otangdek ulug'", "Ta'lim bergan ustozingdan ayrilma" singari maqollarni ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo'lib ulg'ayishini orzu qilganlar.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta'lim – so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish – harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan. Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim, deb hisoblaydi. O'spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Kasb-hunar egallash orqali o'spirinlarda sabr – bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Eng mashhur va yirik asarlaridan biri "Axloqi Jaloliy"da xam inson kamoloti uchun eng zarur bo'lgan axloqiy fazilatlar yo'llari va usullari bayon etiladi. Davoniy o'z asarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o'tmish olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an'analarni rivojlantirgan holda o'z qarashlarini o'tkir ruhshunos olim sifatida xam talqin etadi, uning fikricha bola yaxshi fazilatlarni ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg'u juda erta shakllana boradi, u ulg'aya borgan sari ayrim juz'iy narsalarni xam ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan ajrata boshlaydi, yaxshilik va yomonlik to'g'risida tasavvurga ega bo'la boshlaydi, aqli to'lishib, ongi o'sadi, deydi olim. Ana shu paydo bo'lgan sezgi va aql orqali tashqi dunyoni bilishi mumkin deydi. Bola o'ta ta'sirchan va taqlidchan bo'lishini ta'kidlar ekan, olim yaxshi fazilatni xam, yomon fazilatni xam u tezda qabul

qilaverishi mumkinligini alohida uqtirib o‘tadi. Bola qalbini naqsh solinadigan, suratlarni osonlikcha tushirish mumkin bo‘lgan taxtaga o‘xshatadi.

Davoniy bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish bilan kasb-hunar o‘rgatish haqida xam qimmatli fikrlarni bildirgan. Davoniy muallimning bolalarni qaysi kasbga qiziqishi, qobiliyatini yaxshi bilishi zarurligi haqida gapirib, bola qiziqib biror hunar yoki ilm bilan shug‘ullansa, unga har qanday sharoitda xam imkoniyat yaratib berish kerak, deb uqtiradi. Albatta, xamma kasblarni egallab bo‘lmaydi, ammo har bir odamning biror kasbga qobiliyati bo‘ladi, deydi olim. Biror kasbni egallab olishga intilgan kishi butun iste’dodini sarf etib, ana shu kasbni tezda o‘rganib oladi. Bunday fikrni buyuk mutafakkir Forobiy xam o‘z vaqitda ta’kidlab o‘tgan edi. Agar u yoki bu shaxsning muayyan kasb-hunarga ishtiyoqi bo‘lmasa, uni majbur qilish mumkin emas, aks holda u o‘zini qiynaydi va bu kasb-hunar unga baxt-saodat keltirmaydi deydi. Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo‘ladi: buni kishilarning ruhiy quvvatiga bog‘lab ko‘rsatib, birinchisini inson aqliga tegishli, deb ko‘rsatadi va bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi ta’lim-tarbiya natijasida vujudga keladi, deb bunga astronomiya, matematika, tibbbiyot, geometriya fanlari bilan shug‘ullanishni kiritadi. Uchinchisiga kishilarning shijoati, jasurligi bilan bog‘liq kasblarni, ya’ni dushmanga qarshi kurash, chegarani qo‘riqlash va boshqalarni kiritadi. Olim kasbi bo‘lmagan, biror kasb bilan shug‘ullanmaydigan kishilarni qattiq tanqid qiladi. Otasining mol-mulkiga ishonib kasb-hunar egallamydigan yoshlarni qoralaydi. Mehnat qilish, hunar egallashni targ‘ib qilar ekan, mehnat inson kamoloti va baxt-saodati manbai, deb hisoblaydi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Davoniy kasb-hunar egallash insoniy fazilatlarning eng muhimi, deb talqin etadi. U kasb-hunar egalarini quyidagi toifalarga bo‘lib: chunonchi, birinchi toifaga qalam ahllari: olimlar, noiblar, munajjimlar, qozilar, muhandislar, musulmon qonunshunoslari va hokazo; ikkinchi toifaga: harbiylar; uchinchi toifaga esa dehqonlar, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchilarni kiritadi.

Ta’lim tizimida talabalarni kasbga yo‘naltirish, kasbiy tashxis, ularning mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalalari doimo jamiyatning diqqat markazida bo‘lsa-da, ammo shaxsning o‘z kelajagini o‘zi o‘ylab ko‘rishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yoshlarning kasbiy shakllanishiga to‘siq bo‘luvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mutaxassislarga qo‘yiladigan kasbiy va shaxsiy talablarning davr nuqtai nizaridan o‘tib borayotganligi;
- kasb tanlashga sabab bo‘luvchi omillarning davriy xususiyatga egaligi va kasblar to‘g‘risidagi ijtimoiy ideallarda yagona me‘orning mavjud emasligi;
- o‘spirin kasbiy tasavvurlarining ijtimoiy-iqtisodiy shart- sharoitlarga, bozor munosabatlariga hamohang o‘zgarayotganligi hamda kasb- hunar va tegishli mutaxassislik yo‘nalishlari o‘rtasidagi tafovutning keskin ortayotganligi;
- yoshlarning mutaxassislik yo‘nalishlarini tanlashlarida aniq tasavvurga, maqsadga, faoliyat yo‘nalishiga, istiqbol rejalarini belgilash qobiliyatiga ega emasligi va boshqalardir.

Yuqoridagi omillarni xisobga olib o‘smirlarning kasbiy shakllanishi, kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etishni dolzarb va keng qamrovli psixologik - pedagogik masala sifatida baholash mumkin. Ma’lumki, har bir shaxs farovonlikda va yaxshi ta’minlangan sharoitda yashashni istaydi. Shu sababli ham insonlar farovon turmushni ta’minlashga xizmat qiluvchi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga intiladilar va moddiy boyliklarni o‘zlashtirishga imkon yaratuvchi kasb-hunar sohalari hamda mutaxassisliklarni egallashga harakat qiladilar. Ba’zi holatlarda ma’lum bir kasbni tanlash va uni egallashda shaxsning imkoniyati yetarli bo‘lmaydi. Insonning qiziqishlariga va psixologik imkoniyatlariga to‘g‘ri kelmaydigan kasbning tanlanishi, tabiiyki, uning shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan shaxsning ichki intilishi va imkoniyatlariga tanlangan kasb bilan shaxs orasidagi munosabati masalasi o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. O‘smirlarning kasbiy shakllanishida buni albatta e’tiborga olish muhim.

Shaxsning ichki intilishi va imkoniyatlariga tanlangan kasb bilan shaxs orasidagi munosabati masala bo‘yicha T.V.Kudryavsev shaxsning kasbiy shakllanishi to‘rt asosiy bosqichga ajratadi. Ularga quyidagilar kiritilgan:

- a) kasbiy intilishlarning shakllanishi;
- b) kasbiy ta’lim; v) kasbiy moslashish;
- g) shaxsning kasbiy faoliyatga qisman va to‘liq o‘zini o‘zi bag‘ishlashi.

Mazkur bosqichlarga mos holda kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni ham sodir bo‘ladi. Kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni psixologik adabiyotlarda yetarli darajada chuqur yoritilgan bo‘lib, psixologlar ayniqsa, kasbiy qiziqishlar intilishlarning shakllanishiga, kasb tanlash bosqichlariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov B.R., Qodirov I.B. “Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami” Toshkent, 2003 y.
2. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. “Kasb psixologiyasi” Toshkent 2003 y.
3. Kondakov I.M. “Diagnostika professionalnix ustanovok podrostkov” 1997 g.
4. A.F. Kudryashova «Luchshiye psixologicheskiye testi dlya profotbora i proforiyentatora» Moskva, 1992 g.
5. Ye.A. Klimov «Kak vibrat professiyu», Moskva 1990 g.l
6. Шагазатова, Б. Х., & Кудратова, Н. А. (2016). ОЖИРЕНИЕ: ПУТЬ ОТ ИЗМЕНЕНИЯ ОБРАЗА ЖИЗНИ ДО МЕТАБОЛИЧЕСКОЙ ХИРУРГИИ. Knee Surgery, Sports Traumatology Arthroscopy, 24, 1741-1742.
7. Шагазатова, Б. Х., & Мирхайдарова, Ф. С. (2019). ФАКТОРЫ РИСКА И ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ САХАРНОГО ДИАБЕТА 2 ТИПА У ВИЧ-ИНФИЦИРОВАННЫХ БОЛЬНЫХ. In Российская наука в современном мире (pp. 24-25).